

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TO'LOVGA QOBIYATSIZLIK TIZIMIDA KELISHUV BITIMINI TUZISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH ZARURATI

**Husainova Sabina Abduqayum qizi**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti  
Xalqaro beznis huquqi yo'nalishi magistranti

O'zbekiston Respublikasi ,100007 Toshkent shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi 54  
Tel.: +998975878108; email: [husainovasabina1808@gmail.com](mailto:husainovasabina1808@gmail.com)

**Husainova Sabina Abduqayum qizi**

Master's student of the direction International business law  
University of World Economy and Diplomacy

100007, Republic of Uzbekistan, Tashkent, Mustakillik ave., 54  
phone.: +998975878108; e-mail: [husainovasabina1808@gmail.com](mailto:husainovasabina1808@gmail.com)  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.13923409>

**Annotatsiya.** Ushbu tadqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasida to'lovga qobiliyatsizlik insitutida kelishuv bitimini tuzish tartibini takomillashtirish zaruriyatlarini tushuntirib berishdan iboratdir. Maqolada tadqiqot maqsadini aniq ifoda etish uchun tarixiy-huquqiy hamda qiyosiy taqqoslash metodikalaridan foydalanilgan

**Annotation.** The purpose of this research is to explain the need to improve the procedure for concluding a settlement(debt) agreement in the Institute of Insolvency in the Republic of Uzbekistan. Historical-legal and comparative comparison methods are used in the article to clearly express the purpose of the research.

**Kalit so'zlar:** Bankrotlik insituti, to'lovga qobiliyatsizlik, bozor iqtisodiyoti, tugatish taomili, sanatsiya, tashqi boshqaruv, kelishuv bitimi.

**Keywords:** Institute of Bankruptcy, insolvency, market economy, liquidation of debtor, rehabilitation, external management, settlement(debt) agreement.

Kelishuv bitimini tuzish tartibi to'lovga qobiliyatsiz qarzdorni bankrot deb topish va tugatish nisbatan muqobil yechim sifatida xalqaro to'lovga qobiliyatsizlik tajribasida keng foydalanib kelinmoqda. Kelishuv bitimi (Qarz shartnomasi) - bu qarzdor va kreditor o'rtasida to'lanmagan qarzni to'lash bo'yicha tuziladigan huquqiy shartnoma. Ushbu shartnoma mazmuni to'lovga qobiliyatsiz qarzdor qarzning to'liq miqdorini to'lay olishga iqtisodiy qodir bo'lmagan holatda kreditorlarga umumiy qarzning to'liq qismini emas balki uning biror qismini to'lash taklifini taklif qilishdan iboratdir.<sup>1</sup> Kelishuv bitimi tuzilgach qarzdor miqdori biroz kamaytirilgan qarzni kelishilgan muddatda, odatda uch yildan besh yilgacha oraliqda to'lashi kerak. Kelishuv bitimining tuzilishining qarzdor uchun ahamiyat yuqori bo'lib ya'ni bitim tuzilishi orqali qarzdor o'z huquqiy maqomini saqlab qoladi va bankrot deb topilgach yuzaga keluvchi oqibatlardan qutulib qoladi. Kreditorlar manfaatlari uchun ham kelishuv bitimi tuzish muhim, aksincha bo'lsa qarzdorning bankrot deb topilganda kreditor talablari ko'p holatlarda to'lig'icha bajarilmasdan qoladi, kelishuv bitimi esa qiymat jihatdan samarali yechimni taklif etadi. Muayyan vaziyatda bo'lgan debitorlar uchun ushbu yo'l oqilona tanlovdir va odatda eng so'ngi yechim sifatida qo'llanishi tavsiya etilib kelinadi. Albatta Kelishuv bitimi tuzilishining ham oqibatlari mavjud. Odatda bunday ta'sir qarzdorning kelishuv bitimida bo'lgan vaqt

<sup>1</sup> <https://www.contractsounsel.com/t/us/debt-agreement#>

davomida boshqa bir kredit olish imkoniyatining kamayishi va shuningdek qarzdor bu vaqt davomida yangi hamkorlar bilan ishlashdan oldin ularni kelishuv bitimi to'g'risida ogohlantirishi zarurligi bilan ta'riflanadi.

O'zbekiston Respublikasi To'lovga qobiliyatsizlik tizimida kelishuv bitimi tuzish to'g'risidagi norma eng dastlabki "Bankrotlik to'g'risida"gi 1994-yilda qabul qilingan qonun tarkibiga kiritilgan edi. Amalda kuchda bo'lgan "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi qonunning 3-moddasida kelishuv bitimiga - taraflarning o'zaro yon berish asosida to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ish bo'yicha ish yuritishni tugatish haqidagi bitim sifatida ta'rif berilgan. Bitimning tuzilishidan maqsad qarz miqdorini aslidan kamaytirish hamda to'lov muddatini uzaytirish hisoblanadi, shu sababli kelishuv bitimini ta'riflashda qarzdor hamda kreditorlar o'rtasida uning tuzilishi maqsadiga urg'u berilishi maqsadga muvofiqdir. Xalqaro to'lovga qobiliyatsizlik amaliyotida kelishuv bitimi (settlement agreement) odatda "qarz shartnomasi" (debt agreement)<sup>2</sup> nomi bilan ataladi, hamda qarzdor hamda kreditorlar o'rtasida qarzdor majburiyatlarning kreditorlar da'vo qilgan miqdordan kam bo'lgan boshqa miqdorda belgilangan muddat davomida tomonidan to'lab borish uchun tuzilgan shartnoma sifatida ta'rif beriladi. "To'lovga qobiliyatsizlik" to'g'risidagi qonun 3-moddasiga tuzatish sifatida, kelishuv bitimini-kreditorlar talab qilgan qarz majburiyatlarining kamaytirilgan miqdorda kelishilgan vaqt oralig'ida qarzdor tomonidan qanoatlantirilishi asosida to'lovga qobiliyatsizlik (bankrotlik) to'g'risidagi ish yurituvini tugatish deb ta'riflash taklif etiladi.

Kelishuv bitimini tuzish orqali qarzdorning faoliyat turini hamda maqomini saqlab qolish, bankrot bo'lishini oldini olish hamda shu bilan bir vaqtning o'zida kreditorlar talablarini qanoatlantirishga erishish mumkin. Ammo "Kelishuv bitimi" tuzish tartibini to'lovga qobiliyatsizlik ish yurituvida qo'llashda qarzdorning iqtisodiy hamda ijtimoiy vaziyatini to'liq o'rganib chiqish talab etiladi. Bitim tuzilishining asosiy maqsadi qarzdor yuridik va jismoniy shaxslar faoliyati hamda maqomini saqlab qolish, shuningdek bankrot deb topilgach yuzaga keluvchi oqibatlarni oldini olish bo'lsada, qarzdor iqtisodiy imkoniyatlarini to'liq baholay olmaslik natijada jiddiyroq oqibatlar kelib chiqishi mumkin. Kelishuv bitimi qarzdorni qarzlaridan to'la ozod etmaydi va balki qarz miqdorini kamaytirib, qarzni to'lab borish muddatini esa uzaytiradi.<sup>3</sup> Ushbu bitimning qarzdor hamda kreditorlar o'rtasida qarz majburiyatlarini bajarish muddatini uzaytirish maqsadida tuzilgan fuqorolik-huquqiy bitimlardan asosiy farqi bu uning to'lovga qobiliyatsizlikga doir ish yurituvini davomida iqtisodiy sudning tasdig'i asosida tuzilishi hamda barcha kreditorlar manfaatlariga nisbatan birdek xizmat qilishidir. Xo'jalik yurituv subyektlari shuningdek jismoniy shaxslarning o'z iqtisodiy holatlarini muntazam ravishda nazorat qilib borishlari, qarzdorlik yuzaga kelganda esa mavjud aktivlari hisobiga qarz majburiyatlarini vaqtida to'lay olish ehtimolini oldindan prognoz qilib, vaqtincha to'lovga qobiliyatsizlikning alomatlari kuzatilganda esa to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ish yurituvini qo'zg'atishni so'rab iqtisodiy sudlarga o'z vaqtida kechiktirmay murojaat etishlari "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi qonunning amal qilish samaradorligini oshirishga xizmat qilgan bo'lar edi. Ammo ushbu masalalar tashkiliy xususiyatga ega bo'lib, targ'ibot ishlari hamda fuqorolarning shaxsiy xohish istaklari bilan bevosita

<sup>2</sup> <https://www.iiiglobal.org/uncitral/>

<sup>3</sup> <https://www.afsa.gov.au/i-cant-pay-my-debts/debt-agreement/what-debt-agreement>

bog'liqdir. Ayni vaqtda qarzdor, uning kreditorlari shuningdek maxsus vakolatli davlat organlari tomonidan, to'lovga qobiliyatsizlik doir ish yurituvini qo'zg'atishni so'rab berilayotgan arizalarning 90 foizidan oshiq bo'lgan holatida qarzdor doimiy to'lovsizlik alomatlarini namoyon etmoqda, hamda o'z-o'zidan ularga nisbatan sud soddalashtirilgan tartibda ish yurituvini joriy qilmoqda. Soddalashtirilgan tartibda ish yurituvini qo'zg'atilgan qarzdorlar doimiy to'lovga qobiliyatsiz bo'lib ularga nisbatan "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi qonunning 239-moddasi 2-qismiga binoan kuzatuv, sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruv tartib-taomillari qo'llanilmaydi. Shunga qaramay tugatilayotgan qarzdorni bankrot deb topish hamda unga nisbatan tugatishga doir ish yurituv tartib-taomilini qo'llashdan ko'ra yuridik shaxsning faoliyatini saqlab qolish va shu bilan bir vaqtda kreditorlar manfaatlarini himoya qilish iqtisodiy-huquqiy jihatdan samarali yo'ldir.

Amalda kuchda bo'lgan "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi qonunning 161-moddasi 1-qismiga binoan qarzdor va kreditorlar sud tomonidan to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqishning har qanday bosqichida kelishuv bitimini tuzishga haqlidirlar. Ammo qonunda "kelishuv bitimi tuzish taklifini beruvchi to'lovga qobiliyatsiz qarzdorning kelishuv bitimini tuzish uchun layoqatliligiga doir normalar mavjud emas. Quyidagi norma ushbu masalani hal etish maqsadida taklif etiladi:

Quyidagi holatlarda kelishuv bitimini tuzish haqiqiy emas deb topiladi:

- qarzdor kreditorlarining barcha talablarini qanoatlantirish uchun to'lov qobiliyatiga ega;
- qarzdorga nisbatan ohirgi 5 yil vaqt oralig'ida to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ish ochilgan va yoki kelishuv bitimi tuzilgan bo'lsa;
- qarzdorning garov bilan ta'minlanmagan qarzlari miqdori har yilgi inflatsiya miqdori hisobga olinib tasdiqlangan maksimal miqdordan oshiq bo'lganda; (bu chegaraviy miqdorni hisoblash va belgilash zaruriyati mavjud).

Keyingi muhim masala kelishuv bitimining davomiyligi ya'ni amal qilish muddatini belgilashdir. Ya'ni kelishuv bitimi uch yildan kam bo'lmagan hamda besh yildan uzoq bo'lmagan muddatlarda tuzilishi maqsadga muvofiq, shuningdek bitimga amalga qilgan holda qarzni uzish shakli faqatgina pul vositasida bajarilishi zarur. Kelishuv bitimiga amal qilayotgan vaqtda unga o'zgartirish kiritish zarurati yuzaga kelishi mumkin. Bunday holatlarni tartibga soluvchi normalar ishlab chiqish ham jarayonda yuzaga keluvchi holatlarni tartibga soladi.

Demak, qonun hujjatiga kelishuv bitimining muddati hamda kelishuv bitimiga o'zgartirish kiritish shartlari va kelishuv bitimi jarayonini nazorat qiluvchi boshqaruvchiga doir yangi normalar kiritilishi lozim. Quyidagilar ushbu qo'shimcha normalar matni uchun takliflar sifatida taqdim etiladi:

*1. Kelishuv bitimining amal qilish muddati.*

Kelishuv bitimining davom etish muddati ko'pi bilan yigirma to'rt oyni tashkil etishi mumkin.

*2. Kelishuv bitimiga o'zgartirish.*

Kelishuv bitimiga o'zgartirish kiritish shartlari qarzdor tomonidan kreditorlar qo'mitasiga yozma shaklda taqdim etilishi kerak. Kelishuv bitimi tuzilgach, sud boshqaruvchisining vakolatlari tugatiladi bunday vaziyatda qarzdorning tugatish boshqaruvchisi va yoki rahbari tomonidan kreditorlar yig'ilishini chaqirishi hamda ushbu yig'ilishda kelishuv bitimiga o'zgartirish kiritish masalasi ko'tib chiqilishi lozim. Kreditorlar yig'ilishida kelishuv bitimiga o'zgartirish shartlari tasdiqlanganda, qarzdor ushbu talabnoma

hamda unga kreditorlar yig'ilishining tasdig'ini ilova qilgan holda sudga murojaat etadi. Kelishuv bitimiga o'zgartirish kiritish talabi sud tomonidan rad etish ajrimining chiqarilishi kelishuv bitimiga o'zgartirishlar kiritishning yangi talabi bilan murojaat etishga to'sqinlik qilmaydi.

Xulosa qilib aytganda, qonunning kelishuv bitimini tartibga soluvchi normalarini takomillashtirish asosida to'lovga qobiliyatsizlik tizimida qarzdor va kreditorlarning manfaatlarini himoya qilish yana bir yangi bosqichga olib chiqiladi. Sud sanatsiyasi hamda kelishuv bitimini tuzish bankrotlikka muqobil taomillar bo'lib, sud sanatsiyasi orqali qarzdorning iqtisodiy faoliyati saqlab qolinsa, kelishuv bitimi qarzdorni bankrot deb topilish asosida kelib chiquvchi kelgusi oqibatlardan himoya qiladi, ahamiyatli jihati shundaki ushbu tartib-taomillarning to'g'ri qo'llanilib, tashkil etilishi kreditorlarning ham manfaatlarini uchun xizmat qiladi.

### References:

1. O'zbekiston Respublikasining "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi Qonuni // lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasining "Bankrotlik to'g'risida"gi Qonuni // lex.uz.
3. Xudaybergenov B.B. To'lovga qobiliyatsizlikni huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari: sanatsiya va bankrotlik: yur. fan. dok. diss. Toshkent, 2023. -390.
4. <https://www.contractsounsel.com/t/us/debt-agreement#>
5. <https://www.iiiglobal.org/uncitral/>
6. <https://www.afsa.gov.au/i-cant-pay-my-debts/debt-agreement/what-debt-agreement>